

HUQUQ VA HIMOYA: O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI ZO'RAVONLIKKA QARSHI

Shamsiddinova Yulduz Ulug'bek qizi

Toshkent Davlat Agrar Universiteti qoshidagi

Akademik litsey yuristi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasida jinsiy zo'ravonlik jinoyatlariga qarshi kurashning huquqiy asoslari va amaliy masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda shaxsiy daxlsizlik huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarning ijtimoiy-huquqiy tahlili va ularning oldini olish choralari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Jinsiy zo'ravonlik, shaxsiy daxlsizlik, jinsiy erkinlik, nomusga tegish jinoyati, konstitutsiyaviy kafolatlari, jinoyat huquqi, huquqiy himoya, oilaviy zo'ravonlik, voyaga yetmaganlar huquqlari, ijtimoiy xavflilik, kriminologiya, jinoyat statistikasi, huquqiy ong, ijtimoiy himoya, xalqaro huquq me'yorlari,

Bosh qomusimiz bo'lgan Respublikamiz Konstitutsiyasining 26-moddasida "har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega bo'lishi", "shaxsning o'z sha'ni, obro'siga qilingan va qilinadigan tajovuzlardan himoyalanish"¹ belgilab qo'yilganligi shaxs daxlsizligi davlat tomonidan huquqiy tartibda muhofaza ostiga olinganligidan darak beradi.

Ta'kidlash lozimki, yangi qabul qilingan Konstitutsiyamizda shaxsiy huquq va erkinlaklarning daxlsizligi kafolatlangan. Bundan kelib chiqibaytishimiz mumkinki, shaxslarning jinsiy daxlsizligiga va erkinligi ham, avvalo, Konstitutsiya bilan himoyalangan. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, jinsiy erkinlikka qarshi qaratilgan jinoyatlar insoniyatning ruhiy holati, ichki dunyosi va xulq -atvoriga ham o'z tasirini o'tkazmoqda. Bu esa kundan kunga jinsiy erkinlikka qaratilgan jinoyatlarning soni oshibborishiga sabab bo'lmoqda.

Shaxsiy daxlsizlik tushunchasi ya'ni, insonning jinsiy erkinligi bilan bog'liq bo'lganligi, buning natijasida bir vaqtning o'zida bir necha obyektga tajovuz qaratilgan hisoblanadi, ham shaxsning sog'lig'iga, ham sha'ni qadir-qimmatiniga putur yetkizadi. Chunki zo'rlik bu shaxsning sha'ni qadir-qimmatini qamrab oladi, hamda uning jismoniy daxlsizligini qamrab oladi. Butun dunyo bo'yicha shaxslarning jinsiy erkinligi va jinsiy daxlsizligiga bo'lgan huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, jinsiy erkinlikka daxl qiluvchi jinoiy qilmishlar uchun mutanosib sanksiyalar belgilash, xotin-qizlarni shilqimlik va zo'ravonlikdan himoya qilishning huquqiy kafolatlarini yaratish hamda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan

¹ [30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi \(lex.uz\)](https://lex.uz)

shaxslarga davlat himoyasini taqdim etishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish zarurati belgilab berilmoqda.

Bugungi kunda ham jinoyatchilik, ayniqsa, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar islohotlar yo'lida jiddiy g'ov bo'lmoqda. Zero, islohotlarning asl maqsadi inson manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilar ekan, mazkur turkum jinoyatlar inson hayoti, sog'lig'i, erkinligiga tajovuz qilishi, shaxsga nisbatan zo'ravonlik ishlatilishi bilan ham xavflidir.

Har yil 25-noyabr xalqaro zo'ravonlikka qarshi kurashish kuni keng miqiyosda davlatlar tomonidan nishonlanib kelinmoqda. Ushbu kun BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1999-yilda rasmiy ravishda e'lon qilingan va "Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni bartaraf etish xalqaro kuni" deb ataladi. Bu kun ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro miqyosdagi xabardorlikni oshirishga qaratilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 5 va 7-moddalari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 7 va 9-moddalari, Inson huquqlari va erkinliklari himoyasi to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasining 3 va 5-moddalarida o'z ifodasini topgan.² Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har uch ayoldan bir nafari hayoti davomida eng kamida bir marotaba jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lib, ularning 7 foiziga nisbatan nomusga tegish yoki nomusiga tegishga suiqasd qilish holatlari kuzatilgan.³ Shu bilan bir qatorda BMTning hisob-kitoblariga ko'ra, yetmishdan ortiq mamlakatlarda jinsiy zo'ravonlikka doir munosabatlar qonun normalari bilan to'liq tartibga solinmagan. Bu esa nomusga tegish jinoyatiga qarshi kurash bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish masalasiga alohida yondashish zarurligini ko'rsatadi.

Har yili butun dunyoda 1,6 mln. odam zo'ravonlik zulmining jabrini tortib, qurolli nizolarda va jinoyatchilar qo'lida halok bo'ladi. Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti (JSST)ning yillik hisobotida ham har yili millionlab odamlar og'irlilik darajasi har xil bo'lган tan jarohatlari olishlari tasdiqlangan.

JSST ta'kidlashicha, barcha o'ldirilgan ayollandan yarmining hayotiga ularning tanishlari – eri, sobiq eri, jazmani zomin bo'lgan. Ba'zi mamlakatlarda bu ko'rsatkich 70% ga yetadi. Har to'rt ayoldan biri umri davomida hech bo'lmasa bir marta nomusga tegish jinoyatining qurboni bo'lgan.

Qariyalarga qarshi zo'rlik ishlatilishi ham muammoli masalalardandir. Bular jami zo'rlik ishlatiladigan jinoyatlarning 6 foizni tashkil etadi.

Bugungi kunda Respublikamizda zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning muayyan natijasi oshib bormoqda, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil hisobi bo'yicha umumiy jinoyatchilikning 0,34 foizini nomusga tegish jinoyati

² <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/rape-statistics-by-country>

³ <https://wisevoter.com/>

tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 0,44 foizni tashkil etgan O'zbekistonda 2022-yilda nomusga tegish jinoyatlari soni 39,1 foizga oshganligi, ayniqsa 18-30 yoshdagи ayollar eng ko'p jinsiy tahdid qurboni bo'layotganligianiqlangan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 27,9 foizga oshgan shuningdek, 2023-yil holatiga ko'ra ayollar va xotin qizlarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiq o'tkazish bilan bog'liq jami ko'rilmagan jinoyat ishlari 2 638 ta bo'lsa, ushbu jinoyat ishlari bo'yicha 1 800 ta ayblov hukmi chiqarilgan.

Statistik ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, muayyan darajada bu jinoyatlarning qamrovi oshib borayotganligi va jabrlanuvchilarning yoshi kamayib borayotganligi ya'ni yosharib borayotganligi, avvallari jinsiy jinoyatlar 14-15 yoshdagи shaxslarga nisbatansodir qilingan bo'lsa, bugungi kunga kelibjabrlanuvchilar 7-11 yosh oralig'idagi shaxslar bo'lib qolayotgan holatlar mavjud. Misol sifatida, Toshkent shahrida 55 yoshli erkak 2017-yilda tug'ulgan ya'ni 7 yoshli qizchaga jinsiy zo'ravonlik qilgan bo'lsa, Jizzax viloyatida 21 yoshli erkak 2010-yilda tug'ulgan ya'ni 13 yoshli qizni zo'rلان, Xorazimda 3 voyaga yetmagan qizni 10 oy davomida zo'rлан mulozimlar massalasi, ushbu qizlarning yoshi 15-16-17 yoshda bo'lган, Jizzax viloyatida 63 yoshli erkak 1-sinf o'quvchisiga nisbatan noma'lim xattiharakatlar sodir qilganligini, Buxoro viloyatida 13 yoshli qizni 4 nafar erkak tomonidan zo'rланligi yoki, Toshkent shahrida deputat voyaga yetmagan bolani zo'rланlikda guman qilinayotganligi kabi xabarlarniko'rib turibmiz. Lekin ko'plab zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinsiy jinoyatlar ularning fosh etish ko'rsatkichlari yildan-yilga pasayib borayotganligi, bu turdagи jinoyatlarning aksariyat qismi oilaturmush doirasida sodir etilsa-da, lekin jamiyatda o'zi va oilasi haqida salbiy gaplar paydo bo'lishidan qo'rqb, zo'rлан jabrlanuvchilarning aksariyatini o'rnatilgan tartibda vakolatli organlarga murojaat qilmaslik holatlarini mavjud, shu bilan bir qatorda takidlash joizki, BMTning ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda ayollarning har uchinchisi gender zo'ravonlikka uchrab kelmoqda, afsuski ohirgi 10 yil davomida bu ko'rsatkich o'zgarmagan. Achinarlisi shundaki har soatda 5 nafardan ortiq ayol yoki qiz o'z oila a'zolarining zo'ravonligi natijasida hayotdan ko'z yummoqda .

O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifalari bugungi kunda shaxsga qarshi jinoyatlar bilan kurashish bo'lsa, bu kurashning asosini inson hayoti, qari, sha'niga qarshi qaratilgan jinoyatlarga qarshi kurashish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining asosini tashkil qiladi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, jinsiy jinoyatlar dinamikasi insonning temperamentini shakllantirishga ta'sir etuvchi jo'g'rofik, biologik omillar va bu turdagи jinoyatlarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan profilaktik choralarining samaradorligiga bog'liq holda shakllanadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning ba'zi hududlarida mazkur turdagи jinoyatlarning o'sishi, ayrim viloyatlarda esa kamayishi kuzatilmoqda. Lekin jinsiy jinoyatlar dinamikasining barqaror emasligi ularning ijtimoiy xavfliligi darjasи va huquqiy

mazmuniga ta'sir etmaydi, chunki ushbu turdag'i qilmishlar ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi, shaxsning jinsiy erkinligi va daxsizligiga tajovuz qilishi bilan boshqa jinoyatlardan farq qiladi. Respublikamizda jinsiy jinoyatlarning ayrim turlari: besoqolbozlik va shaxsni jisniy aloqaga majbur etish kamayib borayotgan bo'lsa-da, nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiyy usulda qondirishning ortib borayotganligi kuzatilmoqda.

Bu, o'z navbatida, mazkur jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarining mukammal emasligi va aholi huquqiy bilimlarining pastligidan dalolat beradi. Mazkur bitiruv ma'lakaviy ishining ahamiyati shundaki, unda jinsiy jinoyatlarga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy jihatlarini o'rganish asosida jinoyat qonunida mavjud bo'lgan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, qonun normalarini amaliyatga tatbiq etish, ushbu turdag'i qilmishlarning kriminologik, viktimalogik profilaktikasi bo'yicha taklif va mulohazalar ishlab chiqilgan.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "...O'tgan davrda jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Ma'lumki, qonunchilikda jazoni og'irlashtirish yoki yengillashtirishga oid moddalar bor.

Lekin, ular tergovchi yoki sudyaning ixtiyoriga ya'ni inson omiliga to'liq bog'liq bo'lib qolmasligi kerak. Aks holda, biz uchun muqaddas bo'lgan adolat mezonи buziladi..." Albatta, bu turgan gapki, jinoyat uchun jazo tayinlash inson omiliga bog'liq bo'lmagli lozim hamda, prezidentimizning nutqidan xulosa qilsak, zo'rlik ishlatib jinsiy jinoyat sodir etishijtimoiy xavfliliqi bilan birga, og'ir jinoyat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2030 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi, 2016 yil 21 oktyabrdagi PF-4850-son «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2023-yil 11-apreldagi O'RQ-829-son «Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun. Mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'ravonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga, bolalar orasida nazoratsizlikning va ular tomonidan huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olishga, shuningdek nogironligi bo'lgan bolalarni hamda ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksimizning V-bobi Fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbazarliklar bo'lib, ushbu bobga qator moddalar

qo'shildi, mazkur moddalar 411 – modda. "Shahvoniy shilqimlik qilish"deb belgilandi. Jamiyatimizda qadimdan o'rnashib qolgan mentaletitimizdag'i bazi maqollarga to'xtalamiz "g'unojin ko'zini suzmasa, buqa ipini uzmaydi" biz bu maqoldan kundalik turmush tarzimizda juda ko'p foydalanamiz ya'ni ayol o'zi erkakga nisbatan ko'zini suzmas ekan, erkak unga hech nima qilolmaydi degan ma'noni ko'ramiz, albatta bu mazmunning ham o'ziga tegishli insonlar yoq emas. Ammo bizda qiz bolaning, ayolning sha'ni va qadr-qimmatiga unga boshqa shaxs tomonidan har xil turdag'i shahvoniy harakterga ega bo'lgan harakatlar sodir qilinsada, ushbu harakatlarning bosh sababi yuqoridagi maqolimiz kabi baholanadi. Biz bu qarash bilan yashar ekanmiz o'zimiz bilmagan holda, hayotimizda bo'layotgan ijtimoiy xavfli huquqbuzarliklar yoki qilmishlarni sodir etayotgan shaxslar foydasiga jinoyatlar ochilmasdan hatto mentaletitimiz sabab, HMQOga habar bermasdan qolib ketayotganligi, huquqbuzarlar yoki jinoyatchilar ushbu qilmishlari sodir qilib ham, ochiq osmon ostida o'z farovon hayotlarida yashashiga afsuski sharoit yaratib bermoqdamiz. 592 – modda.

"Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik" bizning fikrimizcha, bu norma jamiyatimizdag'i xotin qizlarimizni, kamsitilishi, zo'ravonlikka uchrashi, mulkiy, ta'lim, sog'liqni saqlash yoki mehnatga oid munosabatlarni amalga oshirishda to'sqinlik qilish jamiyatimizda ayollarimizniona, ayol, kelin, qiz, farzand sifatida qaddini tik tutibyurishiga to'sqlik qilayotgan bazi shakildagi huquqbuzarliklar barham topishi uchun ajoyib tarxiynorma bo'ldi deb aytolamiz. 247-modda. Bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar ya'ni, Bolalar masalalari bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqadi, bu komissiyalar har bir tuman (shahar)larda o'z faoliyatini amalga oshiradi. Har bir davlatning kelajagi bu hozirgi kundagi o'sib kelayotgan yosh avlod ularga nisbatan davlatimiz tomonidan amalga davlatimiz tomonidan oshirayotganishlar beqiyos. Ammo bu bilan bir qatorda o'z nafsi va irodasini boshqara olmaydigan, inson bo'lib hatto farzandi bazilari esa nevarasidan ham kichik bo'lgan bolalarga nisbatan jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlar sodir qilayotganligi inson qalbini lag'zaga keltirmasdan qolmaydi.

Huddi shu qonun asosida, Jinoyat qonunchiligidan ham qator moddalar qo'shib, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar uchun, sangsiya kuchaytirildi. Bunga asos sifatida, JKning 126-moddasi. "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik" Ma'muriy qonunchiligidan singari jinoyat qonunchiligidan ham og'ir jazo sifatida qo'shildi. 1281-modda. "O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar bilan moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor orqali jinsiy aloqa qilish" bizning fikrimizcha bu norma 16-18 yoshgacha bo'lgan shaxslar o'rtasida sezilarli darajada jinsiy jinoyatlar ko'payib borayotganligi uchun chiqarildi. Negaki bu yosh oralig'idagi shaxslar orasida o'z oilasi, yaqinlaridan ko'ra ko'chadigi o'zni eng yaqin inson sifatida tutadigan, u insonlar bushaxsdan foydalanib olgincha ya'ni maqsadiga erishguncha, uni moddiy jihatdan tamonlaydigan inson

sifatida ko‘rinadi. Ushbu qonun qabul qilingandan so‘ng Prezident Administratsitasi, Shu’ba mudiri Saida Mirziyoyeva xotin-qizlarga, bolalarga va oilaviy zo‘ravonlikga nisbatan o‘z fikrlarini bildirdi. Unga ko‘ra, “O‘zbekistonda oiladagi zo‘ravonlik rasman jinoyat deb e’lon qilindi. Xotin-qizlarni ta’qib qilish va ularga shilqimlik qilish uchun javobgarlik belgilandi. Jinsiy zo‘ravonlik qilgan shaxslar muddatidan ilgari jazodan shartli ozod qilinmaydigan bo‘ldi. Shuningdek, pedofillar reyestri ham yuritiladi. Ayolni abort qilishga majburlaganlik uchun jazo og‘irlashtirildi.”

Fuqarolar huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini amalda va ishonchli qabul qilinishi munosabati bilan jazoni individuallashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladigan zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinsiy jinoyatlar holati haqida yangicha fikrlash, uning nazariy qoidalarini yangicha talqin qilish, ularning mazmunini ochib berish, amalda qo‘llanish masalalarini ishlab, bu boradagi qonunlarni rivojlantirish masalalarini ishlab chiqish zarurati vujudga kelganligini e’tiborga olinishi kerak.

Zo‘ravonlikka qarshi kurash faqat huquqiy choralar bilan emas, balki ijtimoiy ongni o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi kerak. Konstitutsiya, qonunlarimiz va xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan me’yorlar zo‘ravonlikni bartaraf etishga qaratilgan asosiy vositalardir. Jamiyatning har bir a’zosi zo‘ravonlikka qarshi kurashda faol ishtirok etishi, o‘z munosabati va harakatlari bilan bu muammoga qarshi turishi zarur. Xalqaro va milliy tadbirlar odamlarni bu masalada birlashtiradi. “Zo‘ravoniksiz jamiyatni yaratish uchun har birimiz o‘z hissamizni qo‘shishimiz zarur. Bu inson qadrini ulug‘lash va adolatni ta’minlashdagi eng muhim qadamlardan biridir.”

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

I. Rahbariy adabiyotlar

- 1.1. Sh.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. / Sh. M. Mirziyoev. - Toshkent : O‘zbekiston, 2017. -592 b.
- 1.2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: «O‘zbekiston», 2017.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.–T.: “O‘zbekiston” 2025–76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi; - T.: Adolat. 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvaragi PF-60- son “2022-2026yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. 02.09.2019-yildagi O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida“ Qonuning O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi/ Ikkinchchi nashr/Nashr uchun mas’ul R.A.Muhiddinov va boshqa.; mas’ul moharrir N.Toychiev, - T.: Adolat, 2011. – 193-b

5. Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risidagi plenum qarori. 29.10.2010 yildagi 13-son. URL: <https://lex.uz/docs/2414120> (Murojaat sanasi: 25.04.2024 yil).
z/uz/pages/humanrights (Murojaat sanasi: 06.01.2023 yil).
6. Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida konvensiya. 20.12.1952 yil Nyu-York. URL: <https://lex.uz/docs/2690835> (Murojaat sanasi: 06.01.2023 yil).
7. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya. 18.12.1979 yil Nyu-York. URL: <https://lex.uz/ru/docs/2685528> (Murojaat sanasi: 06.01.2023 yil).

III. Ilmiy adabiyotlar va maqolalar:

- 2.1. Serdyuk L.V. Nasilie: kriminologicheskoe i ugolovno-pravovoe issledovanie. – M., «Yurlitinform», 2002.
- 2.2. Luneev V.V. Prestupnost XX veka. – M.: 1997.
- 2.3. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi/ Ikkinci nashr/Nashr uchun mas’ul R.A.Muhitdinov va boshqa.; mas’ul moharrir N.Toychiev, - T.: Adolat, 2011.
- 2.4. Payzullaev.Q.P. Zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar. 2008.-46-b.
- 2.5. Yuridik ensiklopediya / Yuridik fanlari doktori, professor U.Tadjixonovning

IV. Foydalanilgan internet sahifalari:

1. <http://www.lex.uz>
2. <https://stat.sud.uz>
3. <http://www.norma.uz>
4. <http://www.sud.uz>
5. <http://www.dslib.net>
6. <http://www.tsul.uz>
7. <http://www.inscience.uz>
8. <https://savodxon.uz>
9. <https://rapecrisis.org.uk/get-informed/types-of-sexual-violence/what-is-rape/>
(Murojaat sanasi 25.04.2024)
10. <https://nemolchi.uz>
11. URL: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-n/nomus-uz/>.

Yulduz Shamsiddinova Ulug’bek qizi